

Dinara CHORIYEVA

**BIZ O‘ZBEKNING  
FARZANDI**

MAJBURIY NUSXA

Qarshi  
«Nasaf» nashriyoti  
2013

84(59)7-438. qf08.

UO'K O'z.2

KBK 84 (50'zb)-3

Ch 77

*Dinara Choriyeva she'iyat bo'stoniga endi qadam bosayotgan yoshlardan.*

*Uning mashqlarida obrazli ifodalar to'laqonli aks etmasa-da, chiroyli intilish, tabiiy havas sezilib turadi.*

*Dinara tinmay o'qib, o'rgansa, kelajakda yaxshi-yaxshi she'rlar yozishiga umid bildiramiz.*

HO 41397  
0

2013/91 A6772	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
------------------	--

Ch  $\frac{4702620201-34}{376(04)2013}$  34-2013 © D. Choriyeva, 2013 yil.

© "Nasaf" nashriyoti, 2013 yil.

ISBN 978-9943-18-137-3

## MUSTAQILLIK BAYRAMI

Asrlarga teng bo'lgan  
Salom, qadrli yurtim.  
Qushlari sayr qilgan,  
Mo'jizakorli yurtim.

Tinchlik uchun kurashgan,  
Bobo- kalonlar salom.  
Mehnatingiz bir dunyo,  
Himmatigingiz bir olam.

Mana keldi tantana,  
Katta quvonchli bayram.  
Elim orziqib kutgan,  
Mustaqillik muborak.

Shuhratu, sharafingni,  
Ko'taraylik osmonga.  
Yurtim, noming taralsin  
Butun jumla-jahonga.

## VATAN SO'ZI DILIMDA

Vatan, sening madhingni ko'ylab,  
Sevib sevilib yashayman har dam.  
Vatan desam tebrandi qalam,  
Sirli koinotga bog'lanib go'yo.

Vatan so'zi dilimdan o'chmas,  
Chug' bo'ladi doim yurakda.  
Nur sochadi har tomon har on,  
Sirli koinotga oshufda bo'lib.

## ONAJONIM

Yorug' dunyo bilan yuz ko'rishgan on,  
Sizning bag'ringizda onajonginam.  
Shundan buyon qalbim quvonchga makon,  
Shundan buyon go'zal bu olam.

Har bir so'zingizda mehringiz sezdim,  
Hayot go'zalligin his etdim unda.  
Chunki siz chehranga termulgancha jim,  
Ko'z ham yummasdingiz hattoki tunda.

Onajonim, baxtinga sog' bo'ling doim,  
Panoh bo'lib yuring men uchun mangu.  
Ollohim qo'llasin sizni iloyim,  
Dinara qizingiz yurak so'zi bu.

## O'ZBEKISTON

Dunyomizda bittadir,  
Yurtlar ichra bittadir.  
Keng jahonda bittadir,  
U ham O'zbekistondir.

Nomi dunyoga mashhur,  
Xalqin barchasi tanur.  
O'zbekiston gul Vatan,  
Nomi mashhurdir vatan.

Har bir qadam bosganda,  
Chamanzoring chiqadi,  
Gullab yashnagan bo'ston.  
Go'zal yurt O'zbekiston.

Sening noming ham ulug',  
Sening to'prog'ing ulug'.  
Har bir go'shang mo'jiza,  
Tog'-u toshing anhorning.

Daraxting, maysalaring,  
Tuproq'ing, tabiatning.  
Osmondagi qushlaring,  
Bu ham katta mo'jiza.

## BIZ O'ZBEKNING FARZANDI

Biz O'zbekning farzandi,  
Baxti kulgan dilbandi.  
Quyosh sochgan nurlari,  
Chak- chak tomgan durlari.

Vatanimiz kelajagi,  
Biz farzandlar bo'lamiz.  
Yurtimiz shon-shuhratin,  
Yuksaklarga ko'taramiz.

G' ayratli shijoatli,  
Kamol topaylik birdam.  
Yurtimiz go'zalligin,  
Tan olsin barcha dildan.

Davlatlarning ichida,  
Sulton bo'lsin O'zbekim.  
Farzandlaring sen uchun,  
Jonlari fido bo'lsin.

Biz o'zbekning farzandi,  
Kelajagi, avlodi.  
Fidoyidir yoshlari,  
Vatanparvar barkamol.

## MAKTAB

Menig ulug' maktabim,  
Juda go'zal bo'libdi.  
Bilimlarga to'libdi,  
Orzularda yuribdi .  
Ustozlari alloma,  
Hamda dono, bilimdon.  
Biz yoshlarga mehribon  
Qalbi to'la mehrdir.  
Biz bolalar shux- shodon,  
O'ynab kulib yuramiz.  
Savolga ham qo'l cho'zib,  
Bilimni ham olamiz.  
Kitob bizning do'stimiz,  
Olam -olam so'zimiz.  
Kattadir orzuyimiz,  
Qayrilmas qanotimiz.  
Maktab bizning shahrimiz,  
Bilim olgan qasrimiz.  
Barkamol yoshlarimiz,  
Maktab bilim bog'miz

## QASHQADARYO

Qashqadaryo xalqini,  
Ko'rib keting jamolin.  
Tog' va adirlarini,  
Yashnatadi gulzori .

Insonlari doimo  
Vatanga sodiq turar.  
Vatanini gullatmoq-chun,  
Doim xizmatda bo'lar.

## DILDORA

Ismi jismiga monand,  
Do'stim mening Dildora.  
Oydekkina husni bor,  
U hammaga mehribon.

Maktabda biz doimo,  
Qo'l ushlab yuramiz.  
Ko'cha-ko'yda ham hatto,  
Hamroh bo'lib turamiz.

Dildoraning talanti,  
Juda ajib g'aroyib.  
Ilhomlanib yozar she'r,  
Quvnab turgan kunida.

Bo'sh qolgan vaqtlarida,  
Badiiy kitobni sevar.  
Izlanadi tinmaydi,  
O'z ustida ishlaydi.

Orzuing bo'lsin osmon,  
Baxt qushing ko'kka uchsин.  
Omadli bo'l sen doim,  
Qadrli bo'lgin do'stim.

### YOMG'IR

Samodan yog'ilar,  
Tomchi-tomchi suv.  
Osmondan tushganda,  
Zarga o'xshaydi .

Yomg'ir yog'sin,  
Daryolar to'lsin.  
Qir-adirlar,  
Gullab yashnasin.

Mayli yog'sin,  
Shovqinli yomg'ir.  
To'lib toshsin,  
Daryo ariqlar.

## VATAN

Yuragimdan chiqib ketdi,  
Vatan so'zi.  
Charx uradi,  
Doim mening yuragimda.

Vatan desam,  
Tebranadi qalamlarim.  
Mening so'zlarimga ,  
Qulog'in tutib.

## BUVIJONIM

Shakar shakar so'zi,  
Mehribon buvim.  
Bizga mehrin bergan,  
Azizim buvim.

Buvijonim men sizni,  
Juda yaxshi ko'raman.  
Sizning so'zlaringiz tinglab,  
Aqli ham bo'laman.

Buvijonim men sizni,  
Bayram bilan qutlayman.  
Doim tabassum qilib,  
Har dam xushchaqchaq bo'ling.

## BAHORNING XUSHBUY HIDI

Sehirli xushbo'y hidin,  
Har joyga taratadi.  
Menga ilhom baxsh etib,  
Go'zallik yaratadi.

Mana bahor keldi,  
O'zgacha sehr bilan.  
Yerlarga to'shaldi,  
Gilam gulchaman.

Yomg'ir yog'sa osmondan ,  
Yoqimli hid chiqar yerdan.  
Go'yo uning hidi,  
Atir gulga teng bo'lar.

## O'ZBEKISTON

O'zbekiston seni kuyladim,  
Jo'shqinlanib satrlar yozdim.  
Guli bog'u joylarin kezib,  
Faxrlanib iftixorlandim.

Oltiniga kon,  
Yerlaringni men.  
Qiyoslayman osmon falakka,  
Alishmayman dunyolaringga.

Bir tomchilik zarra suvingda,  
Qancha soflik tiniqlik bordir.  
Bir hovuchlab ichsa insonlar,  
Tetiklashib shifo toparlar.

Gullarga burkangan O'zbekistonim.  
Ey, mening diyorum, gulu bo'stonim,  
Nomi ulug' O'zbekistonim.  
Gullarga ko'milgan chamanistonim.

## ONAJONLAR

Joni toshdan bo'lgan,  
Ey onajonlar.  
Mehri daryo bo'lgan,  
Ey onajonlar.

Sevinchimiz baxtimiz,  
Siz onajonlar.  
Yurakdagi so'zimiz,  
Siz onajonlar

Tunlari orom olmagan,  
Bolam deb, kuyib yondingiz.  
Mehringiz toshni eritgan,  
Ey mushtipar buyuk zotlar.

Farzand uchun sog' bo'lingiz.  
Doim kulib yuringiz,  
Farzandingiz yutug'in,  
Ko'rib baxtli bo'lingiz.

## GUL

Atrofga chiroy bergan,  
Hidin har yon sochgan.  
Bog'bonlarga do'st bo'lgan,  
Gullar bo'lar guloyim.

Qizlarning yuzidiru,  
Sunbul sochlaridiru.  
Yurgan izlaridiru,  
Gullar bo'lar guloyim.

Atrofga go'zalligin,  
Tarqatar kecha-kunduz.  
Kulib turar har doim,  
Gullar bo'lar guloyim.

## MUNDARIJA

Mustaqillik bayrami.....	3
Vatan so'zi dilimda.....	4
Onajonim.....	4
O'zbekiston.....	5
Biz o'zekning farzandi.....	6
Maktab.....	7
Qashqadaryo .....	8
Dildora.....	8
Yomg'ir.....	9
Vatan.....	10
Buvijonim.....	10
Bahoming xushbo'y hidi.....	11
O'zbekiston.....	12
Onajonlar.....	13
Gul.....	14

ADABIY-BADIIY NASHR

Dinara CHORIYEVA

BIZ O'ZBEKNING FARZANDI

Muharrir: Y.Ziyodov.

Texnik muharrir: Ch.Rahmonov.

Musahhah: Y.Ziyodov.

Sahifalovchi: Sh.Xolmurodova.

Badiiy bezakchi: Sh.Alisher qizi.

Nashriyot litsenziyasi AI 139, 27.04.2009 yil. Terishga yilda 28.03.2013- yilda berildi. Bosishga 25.04.2013- yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108<sup>1</sup>/<sub>32</sub>, Academy TAD garniturası. Ofset qog'ozı. Ofset usulda chop etildi. Shartli bosma tabog'i 0,84. Nashr bosma tabog'i 0,32. 48-2013-shartnoma. 22-buyrtma. 100 nusxada. 16 bet. Erkin narxda.

«Nasaf» nashriyoti, 180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.

«Qarshipligrafnashr» MCHJda chop etildi.  
180118, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi,  
22-uy.